



UDK: 81'373.7.:811.111.811.512.133

Nilufar ACHILOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: nilufar_uz@mail.ru

Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, PhD G. Tilovova taqrizi asosida

THE STRUKTUR AND SEMANTICS OF THE ANIMALIZM HUND IN THE GERMAN AND UZBEK PHRASEOLOGY

Annotation

The article examines the semantics of the zoonim Hund in phraseology on the material of German and Uzbek languages. Various phraseological dictionaries, including electronic sources, served as the material for the study. As a result, the main structural types of phraseological phrases with the component Hund were revealed, structural-semantic groups verbalising certain personality traits, phenomena of reality, human attitude to the surrounding world were determined. Since the phraseology reflects the world picture, the study allows describing a fragment of the linguistic picture of the world of the native speaker.

Key words: phraseology, structure, semantics, world picture, image, meaning, connotation, zoonym, associations.

СТРУКТУРА И СЕМАНТИКА АНИМАЛИЗМА HUND В НЕМЕЦКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ

Аннотация

В статье на материале немецкого и узбекского языков рассматривается структура зоонима Hund во фразеологии. Материалом для исследования послужили различные фразеологические словари, в том числе электронные источники. В результате были выявлены основные структурные типы фразеологизмов с компонентом Hund, определены структурно-семантические группы, вербализующие определенные черты личности, явления действительности, отношение человека к окружающему миру. Поскольку во фразеологии отражена картина мира, то исследование позволяет описать фрагмент языковой картины мира народа-носителя языка.

Ключевые слова: фразеологизм, структура, семантика, картина мира, образ, значение, коннотация, зооним, ассоциации.

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA HUND-IT ANIMALIZMINING STRUKTUR VA SEMANTIKASI

Аннотация

Maqolada nemis va o'zbek tillaridagi Hund-it nomi bilan bog'liq frazeologizmlarning tuzilishi ko'rib chiqildi. Tadqiqot uchun material to'plashda turli xil frazeologik lug'atlar, shu jumladan elektron manbalardan foydalanildi. Natijada, Hund tarkibiy qismiga ega bo'lgan frazeologizmlarning asosiy tarkibiy turlari aniqlandi, tuzilmalar, ma'lum shaxsiy xususiyatlarni, voqelik hodisalarini, odamning atrofdagi dunyoga munosabatini og'zaki bayon qiladigan semantik guruhlar aniqlandi. Frazeologiya dunyoning rasmini aks ettirganligi sababli, tadqiqot ona tilida so'zlashuvchi odamlar dunyosidagi lingvistik rasmining bir qismini tasvirlashga imkon beradi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, tuzilish, semantika, dunyo tasviri, tasvir, ma'no, zoonim, uyushmalar.

Kirish. Ushbu maqolada der Hund - It komponentli frazeologizmlarning tuzilishi va semantik guruhlarini aniqlashga bag'ishlandi. Tadqiqot uchun frazeologik lug'atlar va elektron manbalardan tanlangan frazeologizmlar tanlandi.

Bugungi kunda sayyoramizda hayvonlarning ikki millionga yaqin turi yashaydi. Bashariyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida hayvonot olami bilan aloqalar millatlararo munosabatlarga nisbatan ko'p sonli va xilma-xil bo'lgan. Shu bois hayvonlar odamlar hayotida juda katta o'rin tutgan. Inson o'z hayotiy faoliyati jarayonida foydalanish uchun hayvonlarni qo'lga o'rgatgan, ularning xulq-atvorini kuzatgan va o'rgangan, ularni har tomonlama taniy boshlagan va o'zining ularga nisbatan munosabatini shakllantirgan. Jonzotlarning insonlar hayotidagi muhim ahamiyati ularni leksik-semantik guruhini o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirdi. Bu esa ushbu til hodisasini o'rganish jarayonida nomlashda turli atamalarining qo'llanilishigini olib keldi. Nazariy manbalarni tahlil qilar ekanmiz, hayvon nomlarini leksik-semantik guruhlarini nomlash jarayonida yagona yondoshuv yo'qligi, tadqiqot ob'ekti materialining kengligi bilan bog'liqligi aniqlandi. Hayvonlarning nomlari juda keng tarqalgan leksik-semantik guruh bo'lib, u o'z ichiga o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noga ega bo'lgan ko'p sonli leksemalarni ham oladi. Hayvon nomlariga nisbatan tadqiqotchilar turli xil atamalarni,

jumladan zoonim, zoologizm, zoomorfizm, zoosemizm, hayvonlar komponenti, animalizm, zoonim komponentli, zoonimik komponent, zoomorfik tasvir, zoomorfik element kabi atamalar ko'p qo'llanilganligi kuzatildi. Tadqiqotlarning asosiy qismida "zoonim" va "zoomorfizm" atamaları ishlatilgan.

Hayvonlar insonga munosabati printsipiga ko'ra xonaki va yovvoyi hayvonlarga bo'linadi. Odam tomonidan qo'lga o'rgatilgan va unga qandaydir foydasi tegadigan hayvonlar uy hayvonlari hisoblanadi. Eng birinchi bo'lib qo'lga o'rgatilgan jonivor it bo'lgan. Shundan so'ng inson hayotida, uyida va xo'jaligida boshqa hayvonlar ham paydo bo'lib, odamning tirikligi ularga bog'liq bo'lib qoldi. Uy hayvonlarini tasniflash jarayonida it nomi bilan bog'liq frazeologizmlar biz ko'rib chiqayotgan nemis va o'zbek tillarida ham sezilarli darajada ko'p ekanligi kuzatildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. It (lot. Canis lupus familiaris) – itsimonlar oilasining asosiy vakillari, eramizdan avvalgi XIII–XVII mingyilliklarda xonakilashtirilgan. Ular erta neolit davridan boshlab ham sharq, ham g'arb xalqlari maishiy hayotida sezilarli rol o'ynagan. Inson yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatishni juda qadimdan boshlagan bo'lsa, uning birinchi sodiq do'sti – ovdagi hamrohi va yordamchisi, kulbasini qo'riqllovchisi it bo'lgan. It insoniyat taraqqiyotining

butun tarixi mobaynida odam bilan yonma-yon bo'lib, uning kundalik hayotiy faoliyatida muhim o'rin egallagan.

Birinchi itlar – bo'rilar charchoq bilmas ovchi va juda shafqatsiz soqchilar bo'lgan. Biroq it animalizmining ko'chma ma'nolari ko'p hollarda “it – insonning do'sti” iborasiga sira uyg'un bo'lmasligi zamondoshlarmizga g'alati tuyulishi mumkin. Itga salbiy sifatlar taqash barcha tillarda bor; o'xshatishlar: it so'zi salbiy, nafratomuz ma'noda – pastkash, shafqatsiz va tuban odamni bildiradi; itdan badtar, it yotish mirza turish, itday o'lim topmoq, itday haydamoq. It zoonimi faqat itday vafodor, it kabi sodiq kabi turg'un birikmalardagina ijobiy ma'no tashiydi.

Nemis tilida der Hund – 1) it, 2) haq. it –yaramas odam: du Hund!; ein blöder Hund – ahmoq kalla! (yoki: kallang qursin! oshqovoq!) (so'zma-so'z: ahmoq kuchuk).

Shlerat ta'kidlaganidek, „itning qiyofasi ko'proq salbiy ifodalar bilan bog'liq bo'lgan: insonning bazida jirkanchli, nafratomuz, orsiz, tubanlik kabi xislatlari, shuningdek, bazida it kabi sadoqatli va xushomadgo'y do'st sifati, o'z xo'jayinining himoyachisi sifatida xavotiridan tunda dahshatli tovushlar bilan oyga qarab uvillashlari kabi xislatlari itdan olingan [1]“.

Nemis tilining turli lug'atlarida keltirilgan Hund so'zining ma'nolarini ko'rib chiqdik: Hund – 1. Haustier, dessen Vorfahre der Wolf ist; 2. Schimpfwort: gerissener, gemeiner, hinterhältiger oder brutaler Mitmensch; 3. Bergbau: ein Förderwagen (meist auf Gleisen); 4. ein Rollbrett für Möbel; 5. Zoologie, nur Plural: Hundartige, eine Familie; 6. Ein Kartenspiel, welches vor allem in Schlesien verbreitet, stark mit dem polnischen Kartenspiel Turak verwandt und im deutschsprachigen Raum nicht sehr bekannt ist [2].

Nemis tilining elektron lug'atida qo'shimcha qiymat ko'rsatilgan salopp (nem. qo'pol): Mensch, besonders Mann; a. ein dummer, schlapper, lahmer, roher Hund, b. Schimpfwort: gemeiner Kerl, z. B. so ein Hund, du Hund; c. derb: kein Hund = niemand [3]. Tahlil qilish uchun turli leksikografik manbalardan tanlangan 50 dan ortiq frazeologizmlar olindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida empirik materiallar semantik materiallarga turli ma'nolarni og'zaki ifodalaydigan guruhlar tanlandi. Salbiy fazilatlariga ega shaxslarni ifodalaydigan frazeologizmla ko'p sonli guruhni tashkil etishi belgilandi. Struktur jihatdan Hund animaliyi yomon, qo'rqqoq odamga murojaat qilish uchun qayta talqin qilinadi, yoqimsiz, tajovuzkor, insofsiz kabi xislatlar metaforizatsiya qilinadi va "Sifat + ot" modeli bo'yicha qurilgan va substantiv otlashgan frazeologizmlar aniqlandi. Shunday qilib, bizning materialimizda quyidagi belgilar aniqlandi. Shaxslar:

- gemeiner Hund (salopp, abwertend) = Schurke, Lump;
- ein harter Hund (ugs.) = ein strenger, unnachgiebiger Mann;
- ein linker Hund (ugs.) = ein Betrüger, ein hinterhältiger, verschlagener Mensch;
- ein krummer Hund (ugs. abw.) = ein unehrlicher Mann, ein Schwindler;
- ein scharfer Hund (ugs.) = ein autoritärer, aggressiver und bissiger Mann;
- ein falscher Hund (ugs.) = eine unehrliche Person;
- ein blinder Hund (ugs.) = ein unerfahrener Mensch; 2. ein junger Mensch; 3. Ein an allem interessierter Mensch va boshq.

Yuqoridagilardan tashqari, bizning materialimizda quyidagi tarkibiy qismlar aniqlandi.

Salbiy fazilatlariga ega bo'lgan insonlarni tasvirlashda Hund zoonimi bo'lgan frazeologizmlarning salbiy semantikasida pastkashlik, jirkanchlik, tajovuzkorlik, hasadgo'y, ochko'zlik, qo'rqqoqlik kabi xislatlarni ifodalanishi itning inson tomonidan past baholanishi bilan bog'liq: geiziger Hund, elender Hund, falscher Hund, gerissener Hund /

krummer Hund, dummer Hund. Yana shunday fraseologizmlar borki ishdagi nopoklikni, ifloslikni anglatadi, masalan.: das ist ein dicker Hund, achinishga loyiq narsa haqida eslaganda esa das kann einen toten Hund erbarmen / jammern machen kabi it nomi bilan bog'liq frazemalarning ishlatilishi inson xarakterini ifodalashda it animalizmi qanchalik k o'p q o'llanilishi maqsadga muvofiq boladi.

O'xshatishlar:

– wie einen Hund behandeln – it o'rnida ko'rib muomala qilmoq; – müde wie ein Hund (hundemüde) – itday charchagan.

Frazemalar:

– auf den Hund bringen – xonavayron qilmoq, qashshoq qilib qo'yimoq, xarob qilmoq (so'zma-so'z: it oldigacha eltmoq);

– auf den Hund kommen – tubanlashmoq, past ketmoq (so'zma-so'z: it oldigacha kelmoq);

– auf dem Hund sein – tubanlashmoq, past ketmoq (so'zma-so'z: it oldigacha kelmoq);

– mit allen Hunden gehetzt – dunyoning hamma azoblarini ko'rmoq; pixi qayrilgan; ko'raverib ko'zi pishgan (so'zma-so'z: hamma itlar quvlab holdan toydirgan);

– schlafende Hunde wecken – ilonning dumini bosib olmoq; nojo'ya so'z yoki harakat bilan keraksiz muammo chiqarmoq (so'zma-so'z: uyqudagi itni uyg'otmoq);

– Hunde flöhen – irkit, zerikarli ish haqida (so'zma-so'z: itlar qochadi. Ya'ni: it qochadigan ish);

– den Hund hinken lassen – yalqovlik qilmoq, biror-nimadan o'zini chetga olmoq (so'zma-so'z: it cho'loqlanib qolsin);

– vor die Hunde gehen – xonavayron bo'lmoq, xarob bo'lmoq, halok bo'lmoq (so'zma-so'z: itlarning oldida bormoq);

– vor die Hunde werfen – kimningdir tahqirlanishiga yo'l qo'yib bermoq (so'zma-so'z: itlar oldiga tashlamoq);

It animalizmini o'zbek tilidagi o'xshatishlarda ishlatilish holatlarini qoyidagi misollarda keltirishimiz mumkin:

1) sifat modulli (inson obrazini ochib beruvchi aniqlovchi modul qatnashgan) o'xshatishlar:

– itday sodiq (vafodor) – benihoya vafodor, o'zini qurbon qilar darajada sadoqatli odam haqida;

– itday och – juda ham och, har narsani yeyishga tayyor.

2) ot va harakat nomi modulli o'xshatishlar:

– itning keyingi oyog'i – bilish, rivojlanish jarayonida orqada qolib ketgan odam haqida;

– it yotish, mirza turish – tartibsiz, behalovat yashash; maishiy qulayliklarsiz sharoitda yashash;

– it-mushuk (bo'lmoq) – ikki kishining doim bir-biri bilan janjal qilishi, chiqishmasligi.

3) fe'l modulli o'xshatishlar:

– itday talamoq (qopmoq) – qo'pol gapirib, jerkib birovning ko'nglini og'ritmoq;

– itday akillamoq (irillamoq) – birovga g'ashlik bilan qo'pol va o'rinsiz gapirmoq;

– itday otib tashlamoq – odamni hech bir qadrsiz narsa yoki hayvon kabi achinmay, shafqatsizlik bilan otib o'ldirmoq;

– itday yashamoq, turmush kechirmoq – nihoyatda qiyin, nochor, aftoda holda yashamoq;

4) moduli zoonimdan oldin kelgan o'xshatishlar:

– kuchala yegan itday (tirishmoq) – qiynalmoq, juda qattiq behalovat bo'lmoq;

– musofir itday (dumini qisib yurmoq) – begonaday ajralib turmoq; tortinib, o'zini chetga olib, boshqalardan o'zini kam tutib yashamoq.

5) boshqa turdagi o'xshatishlar:

– it quvganday (qochmoq, yugurmoq) – qo'rquv bilan, juda tez harakat qilmoq;

– itdan yomon (badtar) – pastkash, tuban, berahm va oqibatsiz odam.

Tahlil va natijalar. Inson itning shunchalik ko'p salbiy sifatlarini o'ylab topganki, hatto uning sodiq do'stligini ham unutib qo'yib, yomon ta'rif va o'xshatishlari bilan itga nisbatan adolatsizlik qilgan. It tilda salbiy konnotatsiya kasb etishiga madaniy va diniy qadriyatlar ham ta'sir etgan, albatta. Xususan, Markaziy Osiyo xalqlari 13-14 asrdan beri e'tiqod qilib kelayotgan islom dinida, agar o'tkir ehtiyoj bo'lmasa uyda it asrash tavsiya qilinmaydi. "It bor uyga farishta kirmaydi", mazmunidagi hadislar bor. Musulmonlarga ayniqsa qora rangli itni xonadoniga yaqin yo'latmaslik uqutilgan. Natijada, bir chekkasi ana shu qarashlar tufayli it salbiy ma'nodagi, past, haqir jonivor sifatida idrok qilinib, ko'chma ma'noda haqoratli so'zlar va maqollardan joy olgan: Masalan: it, ko'ppak, itvachcha, qanjiq, laycha, itdan bo'lgan qurbonlikka yaramas va hokazo.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, it zoonimi dunyoning ko'p tillaridagi eng mahsuldor animalizmlardan biridir. Odam tomonidan qo'lga o'rgatilganidan beri it butun umri davomida unga hamrohlik qilmoqda.

Itning inson qadrlaydigan asosiy fazilatlaridan biri bu sadoqatdir. Masalan, Shotlandiyaning Edinburg shahrida xo'jayini vafot etganidan so'ng uning qabri boshida besh yil yashab, o'sha yerda o'lgan it sharafiga haykal o'rnatilgan. Itning vafodorligi frazeologiyada ham o'z aksini topgan: o'zbek tilidagi "itday vafodor", "itday sadoqatli" jummalari bilan nemis tilidagi "treu wie ein Hund" bir xil ma'noni ifodalaydi.

It odamning kulbasini chaqirilmagan mehmonlardan, chorvasini esa yirtqichlardan qo'rigan. Shu bois odam ba'zan o'zining qorni to'ymasa ham itini to'ydirgan. Mehmonga kelgan kishi uy egasini hurmat qilsa, uning itiga ham va umuman, unga tegishli hamma narsaga yaxshi munosabatda talab qilingan. Mazkur odat, xususan, nemis tilida wer schlagt meinen Hund, der liebt mich nicht von Herzensgrund (kim itimni ura, demak u meni chin dildan yaxshi ko'rmaydi) degan frazeologizm paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Bu o'rinda, garchi asosan ko'chma ma'noda qo'llansa-da, o'zbek

tilidagi Egasini siylagan itiga suyak tashlar maqolini eslatib o'tishimiz joiz.

Itlarning fe'l-atvori har xil bo'ladi, itning yuvosh va itoatkorligi u umuman qopmaydi degani emas, ya'ni ba'zi itlar hurmasdan, jimgina kelib tishlab olishi mumkin. Ayni xususiyat ham frazeologik birliklarga asos bo'lgan. Xususan, nemislar – Hunde, die viel bellen, beifien nicht (ko'p huradigan it qopmaydi), ruslar – "не та собака кусает, что лает, а та, что молчит и хвостом виляет" deyishadi. O'zbek tilida esa ma'nosi shunga yaqinroq bo'lgan "itining fe'li egasiga ma'lum" iborasi qo'llanadi.

It yunglari orasida burga bo'lishi "kim bilan do'st bo'lsang, uning yaxshi yoki yomon xislatlari senga ham o'tadi" ma'nosini bildiruvchi frazeologik birliklarda qo'llanadi. Ruslar s sobakoy lyajesh` – s bloxami vstanesh` (it yonida yotsang, burgasi yuqadi), nemislar esa wer mit Hunden zu Bett geht, steht mit Fiden auf deyishadi. O'zbek tilida yomonga yaqin yursang, balosi yuqar; qozonga yaqin yursang qorasi yuqar yoki yaxshi bilan yurdim – yetdim murodga, yomon bilan yurib qoldim uyatga kabi maqollar ayni ma'noni beradi.

Xulosa. Tadqiqotdan ko'rinib turibdiki, Hund zoonimi nemis va o'zbek frazeologiyasida ko'plab uyushmalarga ega.

Yuqorida aytilganlarning barchasi bizga quyidagilarni xulosa qilishga imkon beradi:

1. Insonni bildiruvchi frazeologizmlarida Hund zoonimining metaforik qayta talqin qilinishi insonning ochko'zlik, qo'pollik, qo'rqqoqlik, g'azab, tajovuzkorlik, dangasalik va boshqalar kabi fazilatlarini tavsiflashga xizmat qiladi.

2. Bizning materialimizda tahlil qilingan frazeologizmlarning tarkibiy turlari otli (34), fe'li (33), qiyosiy birikmalar (5) va qolgan qismlari maqol va matallar bilan ifodalanishi aniqlandi.

3. Hund zoonimining salbiy ma'nolari o'rta asrlarda paydo bo'lgan mifologik va diniy tushunchalardan kelib chiqadi.

Shunday qilib, Hund nomi bilan bog'liq frazeologizmlarni o'rganish frazeologiyada hayvonlar tasvirlari bilan ifodalangan nemis va o'zbek tillaridagi majoziy komponentlar haqida tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Bernfried Schlerath. Der Hund bei den Indogermanen / Paideuma. Mitteilungen zur Kulturkunde. Nov. 1954. Bd. 6. H. 2 (Nov. 1954). P. 25–40.
2. Nemis tilining elektron lug'ati. URL: <https://dwds.de/hund/wb>.
3. Nemis tilining elektron lug'ati. URL: <https://www.de-wiktionary.org/wiki/Hund>.
4. Бинович Л. Э, Гришин Н. Н. Немецко-русский фразеологический словарь. Под ред. д-ра Малиге Клаппенбах и К. Агрикола. Изд. 2-е, исправ. и доп. М. : Русский язык, 1975. 656 с.
5. Словарь немецких идиом. URL: <https://idiome.de-academic.com/1338/Hund>.
6. Электронный словарь немецкого языка. URL: <https://dwds.de/hund/wb>.
7. Электронный словарь немецкого языка. URL: <https://www.de-wiktionary.org/wiki/Hund>.
8. Электронный фразеологический словарь немецкой фразеологии. URL: https://www.redensartenindex.de/suche.php?suchbegriff=hund&bool=relevanz&gawoe=an&sp0=rart_ou&sp1=rart_varianten_ou&page.
9. Dominika Krejčová. Phraseologie und Tiersymbolik. Dargestellt an Phrasemen mit Komponenten Hund, Pferd und Löwe u Im Deutschen und im Tschechischen. Brno. 2018. 54 S.